

O'ZBEKISTONDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK TAMOYILLARI

Babanazarova Sevara Abdinazarovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

"Iqtisodiy tahlil va statistika" kafedrasi dotsenti

Akramova Umida O'ktam qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Bank-moliya xizmatlari fakulteti talabasi, ilmiy izlanuvchi

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 21.12.2025

Revised: 22.12.2025

Accepted: 23.12.2025

KALIT SO'ZLAR:

*xizmat ko'rsatish sohasi,
servis, metodologik tamoyillar,
raqamli iqtisodiyot, statistik
tahlil, O'zbekiston.*

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada rivojlanayotgan O'zbekiston sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiy tizimdagi o'rni, uning tarkibiy rivojlanish tendensiyalari hamda mazkur sohani samarali rivojlantirishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodologik tamoyillar keng tahlil etilgan. Tadqiqot jarayonida statistik ma'lumotlar asosida xizmatlar sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, bandlikka ta'siri, hududiy rivojlanishdagi ahamiyati va eksport salohiyati baholangan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasining innovatsion rivoji va ijtimoiy ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot natijalari xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha strategik qarorlar qabul qilishda amaliy ahamiyatga ega.

Kirish

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar xizmat ko'rsatish sohasining rolini sezilarli darajada kuchaytirdi. Avvallari ikkilamchi ahamiyatga ega bo'lgan xizmatlar sektori bugungi kunda iqtisodiy o'sishning muhim manbalaridan biriga aylanmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar sohasi yalpi ichki mahsulotning asosiy qismini tashkil etadi va aholi bandligining katta ulushi aynan shu sektor hissasiga to'g'ri keladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda transport-logistika, moliya-bank, sug'urta, ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kabi xizmat ko'rsatish yo'nalishlari bosqichma-bosqich shakllandi va rivojlandi. Xususan, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ, "Uzbekistan Airways" milliy aviakompaniyasi, Markaziy bank va tijorat banklari, "Uzbekturizm" milliy kompaniyasi, pochta va telekommunikatsiya tizimlarining tashkil etilishi xizmatlar sektorining institutsional asoslarini yaratdi.

Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki aholining kundalik ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va hududlararo tafovutlarni kamaytirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois mazkur sohani rivojlantirishda metodologik jihatdan puxta asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning birinchi choragi holatiga xizmat ko'rsatish sohasining O'zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 56 foizdan ortiqni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2017–2024 yillar oralig'ida barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, xizmatlar sektorining iqtisodiyotdagi yetakchi o'rnini tasdiqlaydi.

2024-yil yanvar–iyul oylarida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 317,25 trillion so'mni, 2024-yil yanvar–noyabr oylarida esa 726,8 trillion so'mni tashkil etgan. 2025-yilning dastlabki ikki oyida xizmatlar bozorining hajmi 136,0 trillion so'mga yetib, o'tgan yilga nisbatan 12,2 foizga o'sgan.

Tarmoq kesimida tahlil qilinganda, transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar va axborot-texnologik xizmatlar yetakchi o'rinlarni egallamoqda. Xususan, 2025-yil yanvar–fevral oylarida transport xizmatlari hajmi 27,2 trillion so'mni, moliyaviy xizmatlar 23,3 trillion so'mni, axborot va IT xizmatlari esa 11,0 trillion so'mni tashkil etdi. Ayniqsa, IT xizmatlaridagi yuqori o'sish sur'atlari raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sektorining istiqbolli yo'nalishlarini ko'rsatib bermoqda.

Xizmatlar sohasi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib, u yangi ish o'rinlari yaratish orqali bandlik darajasini oshiradi. Bugungi kunda xizmatlar sektorida band bo'lgan aholining ulushi 40 foizdan ortiqni tashkil etib, ayniqsa yoshlar va ayollar bandligini ta'minlashda katta imkoniyatlar yaratmoqda.

Hududiy rivojlanish nuqtayi nazaridan ham xizmatlar sohasi muhim ahamiyatga ega. Turizm, savdo, transport va raqamli xizmatlar rivoji chekka hududlarda infratuzilmani yaxshilashga, aholi daromadlarini oshirishga va hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlarda turizm xizmatlarining rivojlanishi buning yaqqol misolidir.

Shuningdek, xizmatlar sohasi eksport salohiyatiga ega bo'lib, so'nggi yillarda IT, transport-logistika va turizm xizmatlari eksporti hajmi sezilarli darajada oshdi. Bu esa mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatini diversifikatsiya qilish va milliy valyuta tushumlarini ko'paytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, zamonaviy xizmatlar sohasini innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'zbekiston so'nggi yillarda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida elektron hukumat, elektron to'lovlar, onlayn bank xizmatlari, elektron savdo (e-commerce) kabi yo'nalishlarda sezilarli yutuqlarga erishdi.

Raqamlashtirish nafaqat xizmatlar sifatini oshiradi, balki ularning narxini arzonlashtirib, aholiga qulay sharoit yaratadi. Shuningdek, xalqaro investitsiyalarni jalb etish va xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik qilishni osonlashtiradi.

Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport sohalari ham xizmat ko'rsatish tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu yo'nalishlar aholi farovonligini oshirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish va inson kapitalini rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Xususan, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimida davlat bilan bir qatorda xususiy sektor ham faol ishtirok etmoqda, bu esa raqobatni kuchaytirib, xizmat sifati oshishiga olib kelmoqda.

Investitsion jozibadorlik va yangi biznes imkoniyatlari xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiy siyosatda eng jozibador yo'nalishlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston hukumati ushbu sohani rivojlantirish uchun soliq imtiyozlari, soddalashtirilgan litsenziya tartiblari va xorijiy investorlar uchun preferensiyalar yaratgan.

Xizmatlar sektorini samarali rivojlantirish uchun quyidagi metodologik tamoyillar muhim hisoblanadi.

Birinchidan, innovatsion va raqamli rivojlanish tamoyili xizmatlar ko'rsatishda zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etishni nazarda tutadi. Elektron hukumat, onlayn

bank xizmatlari, elektron savdo va mobil ilovalar xizmatlar sifatini oshirib, xarajatlarni kamaytiradi.

Ikkinchidan, hududiy diversifikatsiya tamoyili xizmatlarni faqat yirik shaharlarda emas, balki qishloq hududlarida ham rivojlantirishni talab etadi. Bu bandlikni oshirish va hududlar o'rtasidagi nomutanosiblikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, kichik biznes va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash tamoyili xizmatlar bozorida raqobatni kuchaytirib, xizmatlar turlarining ko'payishiga olib keladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda kichik biznesning xizmatlar bozoridagi ulushi 55 foizga yetgan.

To'rtinchidan, ijtimoiy yo'naltirilgan xizmatlar tamoyili ta'lim, sog'liqni saqlash va transport xizmatlarining sifatini oshirish orqali aholi farovonligini yaxshilashga qaratilgan.

Beshinchidan, xalqaro standartlar asosida sifat monitoringi tamoyili xizmatlar raqobatbardoshligini oshirib, eksport imkoniyatlarini kengaytiradi.

Oltinchidan, statistik prognozlash va modellashirish tamoyili xizmatlar sektorining kelgusi rivojlanish istiqbollarini aniqlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi barcha statistik ma'lumotlarni umumlashtirgan holda ko'rib chiqadigan bo'lsak, O'zbekiston xizmat ko'rsatish sohasi so'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotining eng tez o'sayotgan va barqaror rivojlanayotgan sektori hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, xizmatlar ulushi YAIM tarkibida 2025-yilda 56 foizdan oshib, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi bilan taqqoslaganda yuqori sur'atlarni ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot va innovatsion xizmatlar sohasining ulushi yil sayin oshib bormoqda. 2024–2025 yillarda elektron to'lovlar, onlayn savdo, IT xizmatlari kabi raqamli xizmatlar hajmi 25–30 foizga o'sib, umumiy xizmatlar tarkibida 15 foizdan ortiq ulushga ega bo'ldi. Bu esa tarmoqda iqtisodiy samaradorlik, shaffoflik va aholiga qulaylik ortishini ko'rsatadi.

Kichik biznes va xususiy sektor xizmatlar bozorining asosiy drayveri bo'lib, 2025-yilda kichik biznes subyektlarining bozor ulushi 55 foizga yetdi. Bu raqobatni oshiradi, xizmat turlarini ko'paytiradi va narxlar barqarorligini ta'minlaydi. Hududiy diversifikatsiya ham ijobiy natijalar bermoqda. Qishloq hududlarida xizmatlar hajmining oshishi natijasida bandlik darajasi va aholining daromadlari oshmoqda; 2018-yildagi 23,4 foizlik ko'rsatkich 2024-yilda 31,7 foizga yetgan.

Ijtimoiy xizmatlar, jumladan ta'lim, sog'liqni saqlash va transport, iqtisodiy o'sishda muhim rol o'ynamoqda. Ushbu xizmatlarning YAIMdagi ulushi 18,6 foizga yetdi, bu esa aholi farovonligini oshirish va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan

birga, xizmatlar sohasi eksport salohiyatiga ega bo'lib, 2025-yil prognozlariga ko'ra, eksport qilinayotgan xizmatlar hajmi 4,6 milliard dollarga yetadi. Bu raqam turizm, transport va IT xizmatlari eksportining kengayib borayotganini ko'rsatadi. Statistika prognozlash va iqtisodiy modellash yondashuvi xizmatlar rivojini bashoratlashda muhim vosita bo'lib, ARIMA va regressiya modellariga asoslangan hisob-kitoblarga ko'ra, 2026-yilgacha xizmatlar sektori yillik 11–13 foiz o'sish sur'atini saqlab qoladi.

Xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirishda samarali metodologik tamoyillar mavjud. Ulardan birinchisi raqamli xizmatlarni kengaytirish va elektron tizimlarni joriy etish bo'lib, davlat xizmatlari, moliya, ta'lim, sog'liqni saqlash va savdo sohalarida elektron platformalarni rivojlantirish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash — imtiyozli kreditlar, grantlar va subsidiyalarni kengaytirish, hududlarda startap inkubatorlari tashkil etish lozim. Hududiy xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirish orqali hududlararo iqtisodiy tafovutni kamaytirish, har bir viloyat uchun hududiy dastur ishlab chiqish muhimdir.

Shuningdek, xizmatlar sifatini xalqaro standartlar asosida monitoring qilish, ISO va ESG sertifikatlarini joriy etish, eksportbop xizmatlar ulushini oshirish va xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlash tavsiya etiladi. Statistika bazasini modernizatsiya qilish, xizmatlar bo'yicha choraklik, hududiy va tarmoq kesimidagi ma'lumotlarni ochiq portal orqali taqdim etish ham samarali yondashuvdir. Xizmat eksportini rivojlantirish maqsadida IT, logistika, ta'lim va turizm xizmatlarini xorijiy bozorga chiqarish, "Made in Uzbekistan Services" brendini yaratish zarur. Shuningdek, oliy ta'lim va malaka oshirish markazlarida xizmat ko'rsatish menejmenti, servis texnologiyalari va raqamli marketing yo'nalishlarini rivojlantirish, amaliy treninglar orqali xizmat madaniyatini oshirish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, statistik tahlil va xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda xizmatlar sektorini kompleks tarzda rivojlantirish YAIMning 60 foizdan ortig'ini ta'minlashga, aholi bandligini 50 foizdan yuqori darajada ushlab turishga va xizmatlar eksportini 5 milliard dollargacha oshirishga imkon beradi. Shu sababli xizmat ko'rsatish sektorini rivojlantirish strategiyasi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, aholi farovonligini oshirish va mamlakatning xalqaro bozorga chiqish salohiyatini oshirishning eng muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning rivoji iqtisodiy o'sish, bandlik

va aholi farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Statistik tahlillar xizmatlar sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi va iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissassi yildan-yilga ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Kelgusida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish uchun raqamli xizmatlarni kengaytirish, hududiy infratuzilmani mustahkamlash, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va xizmatlar sifatini xalqaro standartlar asosida baholash zarur. Shuningdek, xizmatlar eksportini rivojlantirish va statistik ma'lumotlar ochiqligini ta'minlash bo'yicha tizimli choralar ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, xizmatlar sektorining kompleks rivoji O'zbekiston iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash va mamlakatning global iqtisodiy makondagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pomfret R. The Central Asian Economies in the Twenty-First Century. Princeton University Press, 2019.
2. Pomfret R. The Central Asian Economies since Independence. Princeton University Press, 2006.
3. Mirkasimov B., Pomfret R. (eds.). New Uzbekistan: The Third Renaissance. Routledge, 2024.
4. Asian Development Bank. Uzbekistan: Job Creation and Economic Growth. Manila, 2020.
5. World Bank. Promise of Services-led Growth in Uzbekistan. World Bank Publications, 2024.
6. Kushnir I. Economy of Uzbekistan. Amazon eBook, 2020.
7. Muhammedov M.M. Economic History of Uzbekistan. Samarqand, 2025.
8. Pardaev, Mamayunus K., and Sevara A. Babanazarova. "Possibilities of Improving the Quality and Efficiency of Educational Services in the Countries of Higher Education." World Economics and Finance Bulletin, vol. 30, 4 Jan. 2024, pp. 28-33.